

SUD TIZIMIDA PROFESSIONAL RAQAMLI MUHITNI RIVOJLANTIRISH VA SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xamdamov Murodali Akram o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Tarix

va ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

murodxonxamdam94@gmail.com

Poyonov Behruz Rashid o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

behruz.poyonov1771@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sud tizimini raqamlashtirish jarayonlari hamda sudyalar korpusini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, sud hokimiyati organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, Sudyalar oliy maktabining professional kadrlar tayyorlashdagi o'rni hamda raqamli muhitning sud faoliyati samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, sud tizimida elektron boshqaruv mexanizmlarining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Sud tizimi, raqamlashtirish, elektron sudlov, sudyalar korpusi, Sudyalar oliy maktabi, professional kompetensiya, raqamli muhit, axborot texnologiyalari, odil sudlov, sud-huquq islohotlari.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы цифровизации судебной системы Республики Узбекистан и вопросы формирования судейского корпуса. Особое внимание уделено внедрению современных информационных технологий в деятельность судебных органов, роли Высшей школы судей в подготовке профессиональных кадров, а также влиянию цифровой среды на эффективность судебной деятельности. Кроме того, раскрывается практическое значение механизмов электронного управления в судебной системе.

Ключевые слова. Судебная система, цифровизация, электронное правосудие, судейский корпус, Высшая школа судей, профессиональная компетенция, цифровая среда, информационные технологии, правосудие, судебно-правовые реформы.

Annotation. This article analyzes the processes of digitalization of the judicial system in the Republic of Uzbekistan and the issues of forming the judicial corps. Particular attention is paid to the introduction of modern information technologies into judicial activities, the role of the Higher School of Judges in training professional personnel, and the impact of the digital environment on the efficiency of judicial

activity. The practical significance of electronic governance mechanisms in the judicial system is also highlighted.

Keywords. Judicial system, digitalization, e-justice, judicial corps, Higher School of Judges, professional competence, digital environment, information technologies, justice, judicial reforms.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar barcha ijtimoiy institutlar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari qatori sud hokimiyati ham raqamli transformatsiya jarayoniga faol jalb etilmoqda. Sud tizimini raqamlashtirish nafaqat ish yuritish samaradorligini oshirish, balki odil sudlovning ochiqligi, shaffofligi va fuqarolar uchun qulayligini ta'minlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishni erkinlashtirish, umuman odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini berdi.

Asosiy qism. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi va mazkur transformatsiya sudyalari tayyorlash tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-sonli "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish, sudlar va boshqa idoralar o'rtasida ma'lumot almashinuvini kengaytirish hamda sud jarayonlarini zamonaviy axborot tizimlari asosida tashkil etish vazifalari belgilandi [1].

Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020–2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlanib, unda 2021-yil 1-yanvardan boshlab sud majlislarini audioyozuv orqali qayd etish, 2021-yil 1-iyuldan boshlab apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ishlarni avtomatik taqsimlash, 2022-yil 1-yanvardan boshlab sud qarorlarini taraflarga onlayn tarzda taqdim etish hamda 2023-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish kabi mexanizmlar joriy etilishi belgilandi [2]. Ushbu normativ talablar sudyalari tayyorlash jarayonida axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ish yuritish va kibernetika xavfsizlik bo'yicha maxsus kompetensiyalarni shakllantirishni zaruratga aylantirdi.

2017-yildan boshlab sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni faollashdi. Natijada sudlarga masofadan murojaat qilish, videokonferensaloqa orqali sud majlislarida ishtirok etish, ishlarni avtomatik

taqsimlash hamda sud qarorlarini elektron shaklda e'lon qilish kabi tizimlar amaliyotga tatbiq etildi [3]. Bu esa sud faoliyatini an'anaviy boshqaruvdan raqamli tizim asosida tashkil etishga xizmat qildi.

2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son Farmon asosida sud tizimini raqamlashtirishning yangi bosqichi boshlandi. Mazkur jarayonda sud majlislarini audioyozuv orqali qayd etish, apellyatsiya va kassatsiya ishlarini avtomatik taqsimlash, sud ishtirokchilarini SMS orqali xabardor qilish, sud qarorlarini onlayn taqdim etish hamda sud hujjatlarini elektron arxivga topshirish mexanizmlari joriy qilindi [1]. Ushbu islohotlar sudyalarning faoliyatida raqamli ko'nikmalar va zamonaviy axborot tizimlari bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini kuchaytirdi.

Mazkur chora-tadbirlar sudyalarning faoliyatini to'liq raqamli muhitda amalga oshirishni talab etdi. Shunga muvofiq ravishda Sudyalarning oliy maktabining o'quv dasturlariga sudlarda joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha maxsus o'quv modullari kiritildi. Sudyalarning va sud apparatining xodimlari elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ish taqsimoti, onlayn monitoring, sud qarorlarini elektron shakllantirish hamda ma'lumotlar bazalari bilan ishlash bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etildi.

2022-yildan boshlab "Adolat" axborot tizimlari kompleksining joriy etilishi sud tizimida raqamli boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu tizim orqali sudlarga da'vo va arizalarni elektron shaklda yuborish, ish jarayonini masofadan kuzatish hamda sud hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda shakllantirish imkoniyati yaratildi [10]. Natijada sudyalarning tayyorlash tizimida elektron sudlov texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifaga aylandi.

Shuningdek, Sudyalarning oliy kengashi va Sudyalarning oliy maktabida ham elektron boshqaruv mexanizmlari joriy qilindi. Xususan, nomzodlarning elektron murojaat tizimi yo'lga qo'yildi, suhbat savollarini avtomatik tanlash amaliyoti joriy etildi hamda o'quv jarayonini onlayn nazorat qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa ta'lim tizimining ochiqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga ko'ra sudyalik zaxirasiga kirgan nomzodlarning o'qishi va stajirovkadan o'tishi belgilangan [4].

2020 yil davomida Sudyalarning oliy maktabida jami 334 nafar sudya nomzodlar maxsus malaka oshirish kurslarida, shundan 251 nafari VKS aloqa rejimida o'qitilgan. (101 tasi jinoyat ishlar bo'yicha sudi sudyaligiga, 80tasi ma'muriy ishlar bo'yicha sudi sudyaligiga, 86tasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi sudyaligiga va 67tasi iqtisodiy sud sudyaligiga nomzodlar) 2020 yilda Respublikadagi barcha sudyalarning uchun 6 marotaba qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etildi [9].

2020 yil 1 avgust kuniga qadar Sudyalarning oliy maktabida jami 59 nafar nomzodlar sudyalik yo'nalishi bo'yicha bir yillik magistratura bosqichida o'qitilib, shundan jami

18 nafari sudya lavozimiga tayinlangan, bulardan 7 tasi iqtisodiy sud, 6 tasi jinoyat sudi, 5 tasi fuqarolik sudining sudyasi lavozimiga tayinlangan. 2020-2021 o'quv yili uchun Sudyalar oliy maktabida jami 75 nafar nomzodlar sudyalik yo'nalishi bo'yicha bir yillik magistratura bosqichiga qabul qilinib, shundan 25 tasi jinoyat ishlar bo'yicha sudi sudyaligiga, 12 tasi ma'muriy ishlar bo'yicha sudi sudyaligiga, 20 tasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi sudyaligiga, 18 tasi iqtisodiy sud sudyaligiga nomzodlar o'qitilmoqda [9].

Mazkur ta'lim muassasasining magistratura bosqichiga qabul jarayonlari 2019 yil 5 iyuldan boshlab yo'lga qo'yildi. 2020 yil 1 yanvardan e'tiboran esa Sudyalar oliy maktabining bir yillik o'quv kursini tamomlamagan nomzodning sudyalikka tayinlanishi mumkin emasligi belgilandi.

2023 yil 13 iyul - 27 avgust kunlari sudyalikka nomzodlarni tayyorlash bo'yicha magistratura o'quv kursiga qabul qilish uchun sinov imtihonlari bo'lib o'tdi. Imtixon natijalariga ko'ra, 982 nafar da'vogardan 154 nafari Sudyalar oliy maktabi magistratura bosqichi tinglovchilari safiga qabul qilindi.

Joriy o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy Kengash huzuridagi Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursini 153 nafar tinglovchi bitirdi. Ularning 48 nafari jinoyat, 47 nafari fuqarolik, 30 nafari iqtisodiy va 28 nafari ma'muriy huquq ixtisosligi bo'yicha tahsil oldi. Bitiruvchilarning 41 nafari xotin-qizlar, 20 nafari magistr darajasiga ega hamda 4 nafari yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hisoblanadi.

2024 yil 15 avgust kunlari sudyalikka nomzodlarni tayyorlash bo'yicha magistratura o'quv kursiga qabul qilish uchun sinov imtihonlari bo'lib o'tdi.

Imtixon natijalariga ko'ra, 1030 nafar talabgordan 187 nafari Sudyalar oliy maktabi magistratura bosqichi tinglovchilari safiga qabul qilindi.

Ixtisoslashuv yo'nalishlari bo'yicha taqsimot kadrlar tayyorlash jarayoni sud tizimidagi real yuklama va ehtiyojlardan kelib chiqib tashkil etilayotganini anglatadi. Xususan, jinoyat ishlari yo'nalishida 110 nafar, fuqarolik ishlari yo'nalishida 104 nafar nomzod tayyorlangan. Iqtisodiy sudlar uchun 71 nafar, ma'muriy sudlar uchun esa 60 nafar nomzod tahsilni yakunlagan. Bu nisbat jinoyat va fuqarolik sudlovining amaliy ahamiyati yuqoriligini hamda ushbu yo'nalishlarda malakali kadrlarga ehtiyoj katta ekanini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar Sudyalar oliy maktabida ta'lim jarayonini rejalashtirish va boshqarish mexanizmlari zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilayotganini tasdiqlaydi. Raqamli ta'lim platformalari, elektron nazorat va baholash tizimlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv modullari orqali nomzodlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini raqamli ta'lim platformalari, elektron nazorat va monitoring tizimlari asosida tashkil etish sud tizimida shaffoflik,

hisobdorlik hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv sud tizimining real ehtiyojlariga mos ravishda ixtisoslashgan kadrlar zaxirasini shakllantirish imkonini beradi hamda professional salohiyatni uzluksiz rivojlantirishni ta'minlaydi.

2024 yil yakunlariga ko'ra, sudyalarda hamda sud apparati xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida Sudyalarda oliy maktabida malaka oshirish kurslari tizimli ravishda tashkil etildi. Ushbu kurslarda jami 868 nafar tinglovchi malakasini oshirdi. Ularning 268 nafari sudyalarda, 600 nafari esa sud apparati xodimlari hisoblanadi.

Malaka oshirish dasturlarida sudyalarda turli yo'nalishlar bo'yicha tayyorgarlikdan o'tdilar. Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha 56 nafar, fuqarolik ishlari bo'yicha 60 nafar, iqtisodiy ishlari bo'yicha 28 nafar hamda ma'muriy ishlari bo'yicha 28 nafar sudya malaka oshirish kurslarida ishtirok etdi. Shu bilan birga, sud apparati xodimlari ham malaka oshirish jarayoniga keng jalb qilinib, ular sud faoliyatini tashkiliy jihatdan samarali ta'minlashga doir bilim va ko'nikmalarini mustahkamladilar [9].

Mazkur ko'rsatkichlar sud tizimida kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan malaka oshirish tizimi izchil amalga oshirilayotganini hamda sudyalarda korpusining professional darajasini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, sud tizimi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida keyingi bosqichda Sudyalarda oliy maktabi negizida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tashkil etildi. Mazkur akademiyaning tashkil etilishi sudyalarda tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sud tizimi uchun ilmiy va amaliy jihatdan puxta tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tayyorlash hamda sudyalarda korpusining professional salohiyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim institutsional qadam sifatida baholanadi.

Umuman olganda, sudyalarda tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan mazkur institutsional o'zgarishlar sud tizimining professional salohiyatini mustahkamlash, sudyalarda faoliyatining samaradorligini oshirish hamda zamonaviy raqamli muhit sharoitida odil sudlovni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli Sudyalarda oliy maktabi faoliyati hamda uning negizida tashkil etilgan Odil sudlov akademiyasi sud tizimida professional kadrlar tayyorlash tizimining evolyutsion rivojlanish bosqichi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sud tizimi uchun professional kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish hamda sudyalarda faoliyatida raqamli muhitni shakllantirish masalalari tahlil qilindi. Xususan, sudyalarda va sud tizimi xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda Sudyalarda oliy maktabi muhim ta'lim va ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritayotgani qayd etildi. Mazkur muassasa sudyalarda korpusining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish

kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Sud tizimida raqamlashtirish jarayonlarining kengayib borishi esa sudylar tayyorlash tizimida ham zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu jihatdan sudylar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda professional raqamli muhitni rivojlantirish sud tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2020-yildagi PF-6034-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.09.2020-yildagi PQ-4818-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.08.2017-yildagi PQ-3250-son Qarori.
4. "O'zbekiston Respublikasi Sudylar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonun. 06.04.2017.
5. Rustambayev M. Sud-huquq islohotlari va odil sudlov masalalari. – Toshkent, 2021.
6. Nikifirova Y. Sud tizimida zamonaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy ma'lumotlari.
8. LexUZ elektron qonunchilik bazasi – <https://lex.uz>
9. Sudylar oliy maktabi rasmiy statistik ma'lumotlari.
10. E-sud elektron platformasi materiallari.